

IJODKORNING MA'NAVİY OLAMI

*Abdusamad Risqitillayev**O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti talabasi*

Annotatsiya: mazkur maqolada ijodkor Murod Muhammad Do'stning ijodi, uning film yaratish uslubi haqida so'z boradi. Shuningdek, uning filmlaridagi xilma-xillik, ijokorona qarashlari, ijro etgan rollari haqida mulohaza yuritiladi.

Kalit so'zlar: jamiyat, maqsad, masuliyat, ijod.

Аннотация: в данной статье рассказывается о творчестве создателя Мурада Мухаммада Доста, его стиле кинопроизводства. Также обсуждается многообразие его фильмов, уникальные взгляды и сыгранные им роли.

Ключевые слова: общество, цель, ответственность, творчество.

Annotation: this article talks about the work of the creator Murad Muhammad Dost, his style of filmmaking. Also, the diversity of his films, his unique views, and the roles he played are discussed.

Key words: society, purpose, responsibility, creativity.

Jamiyat dardi bilan yashagan insonning vatanga bo'lgan muhabbati cheksiz bo'ladi. Vaholanki, bunday insonlar ana shu dardning kelib chiqishini o'rganib, undan qutulish yo'lini izlaydi. Bunga har kim turli yo'l orqali qo'l uradi. Xalqning dardini qalami bilan ifoda etib, unga malham bo'lishga uringan, bundan tashqari o'z uslubi bilan o'zbek kino olamida ajralib turuvchi ijodkorlardan biri bu Murod Muhammad Do'stdir. "Ko'p yaxshi gaplarning balandparvoz bo'lib tuyilgani yomon. Aslida, ular hammamizga daxldor, hammamizning ko'nglimizda bor. Vatan, sadoqat va fidoyilik qallda yashagani ma'qul, qonda e'tiqod bo'lmasa, eng ulug' shiorlardan ham zarracha naf yo'q".

Uning izlanuvchanligi, kamtarligini nafaqat harakatlari balki so'zlari orqali ham tushunish mumkindir. U o'z orzulari haqida shunday deydi: "Yaxshi bog'bon bo'lgim keladi, yaxshi usta bo'lgim keladi. Yozuvchiman deb aytish men yaxshi odamman deyish bilan barobar. Adabiyotni, yaxshi qo'shiqni, yaxshi kinoni xush ko'radigan havaskorman. Ma'rifatli bo'lishga imkon qadar harakat qilaman. Yaxshi ota bo'lishga intilaman. Odam yetmishga kirsayam harakat qilaverarkan-a..."

Xalqimiz ushbu ijdkorni, "Dev va pakana" "18-kvadrat" filmlari orqali ham yaxshi taniydi. Murod Muhammad Do'stning ssenariy yozishdagi asosiy uslubi bu harakter hisoblanadi. Aniroq qilib aytiladigan bo'lsa, bir insoning jamiyatdagi o'rni, u qanday kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar, uning jamiyatda qanday hayot kechirishi, shuningdek odamlarning unga bo'lgan munosabati. Xususan, "Dev va pakana" filmidagi Obid Asamov ijrosidagi Zulfiqor obrazi. Jamiyatdagi kichkina odam, uning

orzulari, uning maqsadlari, orada turli ziddiyatlarga duch kelishi. Muhimi, qahramon baribir film yakunida oz bo'lsa-da nimagadir erishganini guvohi bo'lamiz.

Xalqimiz orasida ancha shov-shuvlarga sabab bo'lgan, ekran qarshisiga ancha tomoshabin chaqira olgan filmlardan biri bu "18-kvadrat". Bu yerda Said Muxtrov ijrosida harbiy insonni ko'ramiz. Bu yerda ham ushbu personajning hayotdagi dardi, qiyinchililari, uning ham jamiyatdag kichkina odam ekanligini ifodalab beradi. Muhimi, ushbu filmda ham tomoshabinning oz bo'lsa-da xursand qiliuvchi ko'rinishlar yo'q emas. Ya'ni, film intihosida biz katta bir jinoiy to'daning yo'q qilinishi, va ularning qilmishlariga yarasha jazo olishiga guvoh bo'lamiz.

Yana bir o'zgacha uslubda, tragik komediya janrida yozilgan "Ro'yo" filmi ham tomoshabinlar e'tiborida chetda qolgani yo'q. Ushbu filmning yuqorida sanab o'tilgan, "Dev va pakana" "18-kvadrat" filmariga oz bo'lsa-da o'xshash tomonlari bor. Xo'sh, o'xshash tomoni nimada? Bu yerda ham jamiyatdagi kichkina odam, yaqinari va do'stlari bo'lasa-da, biroq, jamiyat tomonidan tan olinmagan biri. Sodda qilib aytganda, hech kim emas. Bu yerda aynan mana shu narsani Murod Muhammad Do'st bir dard deya ko'rsatadi. Bir so'z bilan aytganda bu film jamiyat haqida. Muallif bosh qahramon misolida jamiyatdagi bo'layotgan ishlarni ifodalayapti. Aniqroqrog'i, jamiyatning ahvoli qay darajada ekanligini ko'rsatishga harakat qilgan.

Film bosh qahramoni ro'zg'ordagi kemtiklar, oiladagi turli muammolar, bundan tashqari ko'chadagi odamlarning munosabati qiynab yuboradi. Biron ishga qo'l urishga urinsa, turli to'siqlarga ro'paro kelaveradi. So'ngra qahramon ro'yo bo'lgan to'g'rirog'i, yo'q bir insonni o'ylab topadi. Uni hammaga "Okaxon" deya tanishtiradi. Bundan keyin uning ishlari baroridan kelib, odamlar unga ishona boshlaydi, xullas, katta bir korxonaga ochib, yaxshigina daromadga ega bo'ladi va tadbirkor bo'lib faoliyat yurita boshlaydi. Qahramon hayoti tubdan o'zgarib ketdi. Masalan, unga o'z ayolining munosabati o'zgardi, atrofidagi insonlarning munosabati o'zgardi, uni turli tadbir-u, ziyofatlarga taklif qilisha boshlashdi.

Yuqiradgi holatlardan kelib chiqib, muallif jamiyatning ko'zgusini ko'rsatib beradi. Tabiiyki, qahramon o'zi shunchaki yordam so'rab borganida, uni hech kim nazarga ilmadi. Ammo u qo'shtirnoq ichidagi ro'yo "Okaxon" ni haqida so'z ochganda, rad javoblar yo'qqa chiqib, yomon munosabatlar ham iliq munosabatga aylandi. Lekin uni odamlar shaxs o'laroq hurmat qilishmas edi, uning ortida kimdir bor ekanligi uchun, shuningdek, u orqali o'zlari ham nimagadir erishishlari mumkinligi sabab uni qadrlashardi. Ya'ni bu yerda bir manfaat bor edi. Buni qahramon atrofidagi odamlarning "Okaxonga salomimni yetkazing", "Okaxon bilan qachon tanishtirib qo'yasiz?" degan gaplaridan ham ilg'ab olish mumkin.

Bugun ham hayotda ana shunday holat yo'q emas. Bir inson bir insonni shunchaki hayotda yashayotganligi uchungina e'zozlamaydi. Uning ortida nimadir yashiringan

bo'ladi. To'g'rirog'i, qaysidir ish qo'limizdan kelmas ekan, hech qayerda hech kimga kerak bo'lmaymiz.

Film davomida qahramon, hammaga yo'q odam haqida gapirishdan charchaydi. Keyin o'zini tutishi ham juda yomonlashib boradi. Bu yerda jamiyatning ahvoli, bir insonni hatto aqlda ozish darajasiga olib borishi mumkinligini ko'rishimiz mumkin. Baridan toliqqan qahramon aslida o'zi o'ylab topgan ro'yo "Okaxon" nini umuman yo'q odamligini aytgach, odamlarning unga bo'lgan munosabatini ko'rib ham qattiq og'rinadi. U bilan ish yurituvchilar esa qahramonga "Sen okaxon bilan urishib qolgansan, endi kasodga uchaymiz" shunga o'xshash gaplarni aytadi.

Achinarli bir yomon holatdagi jamiyat haqida so'z ochilganda bizning ko'z oldimizga Gogolning "Revizor" asari keladi. Umuman olganda ushbu filmga o'xshash tragik komediyalar, Gogolning "Revizor" asariga biroz bo'lsa-da tenglashtiriladi. Zotan, muallif ushbu asarda ham jamiyatning achinarli holatda ekanligini, bir insonni revizor deb o'ylab, bir kunda qanday o'zgarishlar qilayotganligini guvohi bo'lamiz. Ushbu "Ro'yo" filmida ham vaholanki, shunga o'xshash holatlar yo'q emas. Har ikki asarda ham bir qadar jamiyatning, ustidan achinib kulish bor. Jumladan, filmga qo'yilgan musiqa ham bunga misol bo'ladi. Negaki, filmda juda jiddiy masalar haqida suhbat ketyapti, ammo rejissor, eshtilishidan komedik sounddagi musiqa tanlagan.

Voqealar keskin tus olib, qahrmonda ichki konflikt boshlandi. Buni qahramon ko'p o'yga tomib qolishi, bundan o'ta jiddiy va g'amgin nigohlari orqali ham his qilishimiz mumkin. Ayrim epizodlarda qahramon o'zi o'ylab topgan odamga o'zi ham ishonib qolgandek ko'rinadi. Ya'ni haddi harakati, gap soz'alridan ham bu yaqqol seziladi. Biroq xotimada qahramon juda yomon holatga tushdi. Film yakunidagi epizodlardan birida, bosh qahramon qandaydir qorong'u joyga ko'zlarida nur paydo bo'lib, horg'in holatda kirib ketayotganligini guvohi bo'lamiz. Bu yerda Murod Muhammad Do'st jamiyatning mana shunday ahvolidan qahramoning ruhan nomud bo'lishini ko'rsatib beradi. U jismonan yashayapti, eshityapti, javob qayratyapti, lekin ruhan o'lib bo'lganligi namoish etiladi.

Shuni takidlash joizki, Murod Muhammad Do'st nafaqat yaxshi ssenarist, bundan tashqari yaxshi aktyor ham. U bizga bir nrcha filmlar orqali yaxsh tanish. Xususan, ushbu "Ro'yo" filmida ham bosh qahramoning pionista ota rolini ijro etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Murod Muhammad Do'st "Galatepaga qaytish" asari.
"Murod Muhammad Do'st" telegram kanali.